

---

## Tadbirkorga ko'mak berildi

Bugungi kunda Qo'shtepa tumanidagi "Shahartepa" mahallasida aholi bandligini ta'minlash va daromadli qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar ijrosi bo'yicha ijobiy ishlar olib borilmoqda.

Ushbu mahallada yashovchi Doniyorjon Qodirov ayollar oyoq kiyimlarini tikish bilan shug'ullanar, lekin yetarlicha mablag'i yo'qligi sababli ishi to'xtab qolgan edi. Hokim yordamchisi G'olibjon Madaminov tomonidan Doniyorjon Qodirovning ish faoliyati o'rganilib, tegishli tavsiya va ko'mak berildi. Natijada imtiyozli kredit ajratilib, tadbirkor o'z faoliyatini qaytadan yo'lga qo'ydi.

Doniyorjon Qodirov hozirda o'z xonadonida moslashtirilgan joyda faoliyat olib bormoqda. Uning kelajakdagi maqsadi ish faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish va mahalladagi ishsizlarni ish bilan ta'minlashdir.

2025-01-27 08:33:22